SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Jild 3, Son S/8
2023

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V3SI8Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/8 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал:
https://t.me/scienceproblems_uz

**МУНДАРИЖА**

## 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ


*Намазова Умида Нормуродовна*
ФРАГМЕНТЫ ИЗ ИСТОРИИ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ (1929-1945 ГОДЫ)........ 10-15

*Эрназаров Туйгун Раджабович*
ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРСТВА: КЛЮЧЕВЫЕ МОМЕНТЫ И ДОСТИЖЕНИЯ........ 16-21

*Хужаниязов Уктам Ешбаевич*
"ҚОРАҚАЛПОҚФИЛЬМ" СТУДИЯСИ ҲУЖЖАТЛИ ФИЛЬМЛАРИДА ТАРИХИЙ МАВЗУЛАР ТАЛҚИНИ........ 22-27

*Шаимкулов Азамат Холмуратович*
ҚАЙТА ҚУРИШ ДАВРИ МАТБУОТИДА ИҚТИСОДИЙ МАСАЛАЛАР ТАЛҚИНИ........ 28-38

*Муродов Ҳалим Салимович*
ТУРИЗМ РИВОЖИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР........ 39-46

*Юлдашев Саиданварбек Бахромжон ўғли*
ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИНГ– ҚОРАХОНИЙЛАР ТОМОНИДАН ЗАБТ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН........ 47-51

*Shonazarova Nargiza*
TOSHKENT SHAHRIDA "OBOD MAHALLA" DASTURI VA UNING IJROSI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR........ 52-57

*Axmadova Nafisa Axmad qizi*
O'ZBEKISTON VA FRANSIYA MADANIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI........ 58-64

*Qodirova Ra'no Mamirjonovna*
O'ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA 1930-YILLARNING IKKINCHI YARIMIDA TARIX FANINING O'QITILISHI........ 65-70

*Yunusxo'jayev Habibulla Zafar g'o'li*
SHARQDA KUCHLI IJTIMOIY HIMOYA TIZIMI TARIXI........ 71-75

*Нарбеков Абдикамил*
НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА В ТУРКЕСТАНЕ И ЕГО СУЩНОСТЬ........ 76-80

*Alimova G'unchaxon Baxadirovna*
JAMIYAT TARAQQIYOTINING TARIXIY RIVOJLANISH ASOSLARI DIN VA DAVLAT MISOLIDA........ 81-85

*Jumanazarova Fotima*
XOTIN QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH TIZIMINING SHAKLLANISH JARAYONI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI........ 68-93


## 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ


*Ziyodilloev Khushnud Rahimboevich*
PORTFOLIO OPTIMIZATION OF COMMERCIAL BANK CREDITS: A LITERATURE REVIEW........ 94-100

*Hamrayev Amirzoda*
ISLOMIY MOLIYA XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI TASHKILOTLAR KAPITAL STRUKTURASI SAMARADORLIGI TAHLILI ....................101-109

*Хайтбоева Нигора Бакматовна*
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА МАРКЕТИНГ СТРАТЕГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ БЎЙИЧА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАЛАРИ ....................110-119

*Xalilov Qahramon Qurbonboyevich*
MINTAQADA TURIZM HUNARMANDCHILIK KLASTERINI SHAKLLANTIRISHNING DESTINATSION MODELI....................120-132

*Махмудов Турсунпулат Давронович*
ИНВЕСТИЦИЯ МАНБАЛАРИНИНГ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИ ....................133-144

*Ishchanova Salomat*
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING FAOLIYATINING O‘RNI....................145-150

*Мўйдинова Зилола Вохид қизи*
ЧЕГАРА БОЖХОНА ПОСТЛАРИ ФАОЛИЯТИДА “АВТОМАТЛАШТИРИЛГАН ЙЎЛОВЧИ ҲАРАКАТИ” МОБИЛ ИЛОВАСИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ОРҚАЛИ ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ....................151-158

*Samandarov O‘gabek, Ismoilov Shohjahon*
TURIZMNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ULARNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI ....................159-164

## *09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ*

*Саидова Камола Усканбаевна*
ФЕНОМЕН СВОБОДЫ ДЛЯ ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕСТВА: КОМПАРАТИВИСТСКИЙ АНАЛИЗ ....................165-173

*Omonturdiyev Orzu G‘afforovich*
INSONNING MA’NAVIY MOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLARNING AHAMIYATI ....................174-179

*Очилова Гузаль Араловна*
ЮКСАК МАЪНАВИЯТ–МАНФААТЛАР БИРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ....................180-185

*Nurmatova Umida Jalolidinovna*
MUTOLAA, SAVODXONLIK VA TA’LIMNING ANTINOMIK XUSUSIYATLARI....................186-192

*Vafayeva Dilafruz Artikovna*
AHMAD YASSAVIY TASAVVUFIY TA’LIMOTIDA MA’NAVIY BARKAMOLLIK....................193-198

*Karimov Zafarbek Ataboyevich*
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARINING SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI....................199-202

*Bozorova Ro‘zigul Sharofovna*
MEHRSIZLIK HODISASINI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMILLAR ....................203-212

*Xudoyberdieva Anorabonu Hayotovna*
DINIY MANBALARDA IJTIMOIY HAMKORLIK O‘OYALARI ....................213-218

*Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna*
TASAVVUF FALSAFASIDA GO‘ZALLIKNING IMMANENT JIHATLARI ....................219-224

*Dehqonov Behzod Baxtityorovich*
YANGI OʻZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QURISHDA YETTI PIRNING BAGʻRIKENGLIK GʻOYALARINI OʻRNI VA AHAMIYATI ....................225-230

*Abdullayeva Firuza Sharipovna*
NASIRIDDIN TUSIYNING IDROK NAZARIYASI VA KOMILLIK FALSAFASI ....................231-236

*Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich*
SHIHOBUDDIN UMAR SUXRAVARDIYNING “AVORIF UL -MAORIF” ASARI VA UNDA ILGARI SURILGAN GʻOYALAR ....................237-243

*Ибрагимов Солижон Эргашович*
АХБОРОТ ХУРУЖИ ВА “ОММАВИЙ МАДАНИЯТ” ТАҲДИДИ....................244-251

***10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ***

*Qodirova Mukaddas Togʻayena*
BIZNES DISKURSINING MURAKKAB LINGVISTIK TABIATI....................252-257

*Abdullayev Ikramjon Xashimdjanovich*
DIFFERENT APPROACHES TO THE QUANTITATIVE-STATISTICAL CHARACTERISTICS OF PARTS OF SPEECH IN THE ENGLISH LANGUAGE ....................258-265

*Hamroyeva Sharifa Shukur qizi*
TARJIMADA MILLIY SOʻZLARNING BERILISHI (OYBEKNING “NAVOIY” ROMANI INGLIZCHA TARJIMASI MISOLIDA) ....................266-271

*Olimova Gulfiza Muradullayevna*
BADIIY SANʼAT TURLARINING XORAZM DOSTONLARIDA QOʻLLANILISHI....................272-281

*Айниддинов Иқрориддин Шарифович*
АДАБИЙ МАНБАЛАРДА АШРАФ САМАРҚАНДИЙНИНГ ТАРЖИМАИ ҲОЛИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ ....................282-287

*Turaeva Dilfuza Daminovna*
OʻZBEK TILIDA OBRAZLI SOʻZLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI ....................288-295

*Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna*
LISONIY GRADASIYANING MORFOLOGIK, LEKSIK-SEMANTIK SATHDA PARADIGMA SIFATIDA NAMOYON BOʻLISHI....................296-305

*Ashurova Maftuna Asqar qizi, Yuldoshev Rustam Dilshod ugli*
LINGUOCULTURAL COMPARATIVE ANALYSIS OF IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES ....................306-311

*Isroilova Manzura Jamolovna*
FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARDA KOMPARATIV FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING KOMMUNIKATIV TA`SIRI XUSUSIDA ....................312-317

*Шамақсудова Саодат Хидоятовна*
МАССМЕДИА АСПЕКТИНИНГ МЕДИАМАТН ШАКЛИГА КЕЛИШИДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР....................318-324

*Шатова Ирина Юрьевна*
ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ЛЕКСИКИ ПО РОДУ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ....................325-330

*Nortoyeva Nodira Muhammadaliyevna*
FRAZEOLOGIK DERIVATLARNI KONTEKSTLARDA ISHLATILISHINING KOGNITIV ASOSLARI ....................331-335

*Alimjanova Shohsanam Azamat qizi*
KOʻP MAʻNOLI IBORALARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI ....................336-340

*Турниязова Шахноза Нигматовна*
МАТНДАГИ БОҒЛАНИШЛИЛИК ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР ....................341-347

*Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich*
INGLIZ ADABIYOTI TUSHUNCHALARINING XILMA -XILLIGI ....................348-352

*Aminova Dilnoza Xikmatullayevna*
THE IMPORTANCE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE ORIGIN OF MILITARY TERMINOLOGY ....................353-358

**12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Исломқулова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи*
ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ ВА МОҲИЯТИ ....................359-365

*Mamataliyev Toʻlqin Xushmamat oʻgʻli*
OʻZBEKISTONDA MASOFAVIY TAʼLIM HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI ....................366-378

**13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Saidov Jurʼat Sodirovich*
MAKTABGACHA TAʼLIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA TARBIYA BERISHNING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI ....................379-384

*Yusupaliyeva Shaxnoza Hakimjanovna,*
TEXNIK OLIY OʻQUV YURTLARIDA OOʻZAKI NUTQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USUL VA METODLARI ....................385-390

*Таджиходжаева Эльвира Рашидовна*
ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДОВ ИГРОПЕДАГОГИКИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ ....................391-396

*Тўрахонова Барно Турсунбой кизи*
БЎЛАЖАК ПЕДАГОГ-ПСИХОЛОГЛАРНИ ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИШГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИЯТЛАРИ ....................397-406

*Ashurova Sitora Erkinovna*
USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION ....................407-412

*Каримжонова Мунаввар Ибрагимовна*
ХИЗМАТ ИТЛАРИНИ МАХСУС ЙЎНАЛИШГА ТАЙЁРЛАШДА УНГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ (Божхона қўмитасининг Миллий кинология маркази мисолида)....................413-421

*Xamirayev Rustam Abdirazakovich*
VOLEYBOLCHILARDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH ....................422-426

*Хашимова Масуда Камилжановна*
КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К ПРОЦЕССУ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ НАУК ....................427-435

*Бердикулова Насиба Эркинжоновна*
СОДЕРЖАНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ И ИНТЕГРАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ ....................436-442

*Saidnazarova Gulshan Bolta qizi*
AL-BUXORIYNING MA’NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI O‘RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA ........................................ 443-448

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 8/S (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*07.00.00-Тарих фанлари*

**Axmadova Nafisa Axmad qizi**
Termiz davlat pedagogika instituti
Falsafa va ma’naviyat asoslari katta oʻqituvchisi.
axmadovanafisa56@gmail.com

## OʻZBEKISTON VA FRANSIYA MADANIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI

**Annotatsiya.** Oʻzbekiston va Fransiya oʻrtasidagi aloqalar, oʻzaro almashinuv, tarixiy-madaniy muloqotlar, oʻzaro kelishuv va bitimlar manbalar asosida yoritildi va tahlil etildi. Oʻzbekiston va Fransiya oʻrtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalaridagi oʻzaro hamkorligiga toʻxtalib oʻtildi. Oʻzaro kelishuvlar asosida madaniyat, fan va ta’lim sohalarida katta yutuqlarga erishildi. Keyingi istiqbolli rejalarga kelishib olindi.

**Kalit soʻzlar:** diplomatik munosabatlar, xalqaro hamkorlik, Yevropa, Fransiya, parlament, xorijiy mamlakatlar, diplomatiya, elchixona, iqtisodiyot, siyosat, fan va ta’lim, ilmiy- texnikaviy, sogʻliqni saqlash, sayyohlik, turizm, madaniyat.

**Axmadova Nafisa Axmad kizi**
Senior teacher of the department
Philosophy and the foundations
of spirituality Termez State Pedagogical Institute

## THE DEVELOPMENT OF CULTURAL RELATIONS OF UZBEKISTAN AND FRANCE

**Annotation.** Relations between Uzbekistan and France, mutual exchange, historical and cultural dialogues, mutual agreements and deals were highlighted and analyzed based on sources. The mutual cooperation between Uzbekistan and France in the economic, social and cultural spheres was touched upon. On the basis of mutual agreements, great progress was made in the fields of culture, science and education. Future plans were agreed upon.

**Key words:** diplomatic relations, international cooperation, Europe, France, parliament, foreign countries, diplomacy, embassy, economy, politics, science and education, scientific and technical, healthcare, travel, tourism, culture.

**Ахмадова Нафиса**
Старшый преподаватель кафедры
Философии и основы духовности
Термезкого государственного
педагогического института

## РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРНЫХ СВЯЗЕЙ УЗБЕКИСТАНА И ФРАНЦИИ.

**Аннотация:**На основе источников были освещены и проанализированы отношения между Узбекистаном и Францией, взаимный обмен, историко-культурный диалог, взаимные соглашения и сделки. Было затронуто взаимное сотрудничество между Узбекистаном и Францией в экономической, социальной и культурной сферах. На основе взаимных договоренностей достигнут большой прогресс в области культуры, науки и образования. Были согласованы планы на будущее.

**Ключевые слова:** дипломатические отношения, международное сотрудничество, Европа, Франция, парламент, зарубежные страны, дипломатия, посольство, экономика, политика, наука и образование, научно-техническая деятельность, здравоохранение, туризм, туризм, культура.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N08

Fransiya Oʻzbekistonning Yevropadagi muhim sheriklaridan biri hisoblanadi. Oʻzbek va fransuz munosabatlari uzoq tarixga ega. XIV asrning oxirida, Usmonli turklari Nikopolis yaqinidagi yevropalik salibchilarning birlashgan qoʻshinlarini magʻlubiyatga uchratganida, Konstantinopolni bosib olish xavfi tugʻildi. Soʻng Amir Temur yevropaliklarga yordamga keldi. Amir Temurning Vizantiya imperatori, venetsiyaliklar, genuyaliklar va fransuzlar bilan ittifoqi turk sultoni Boyazid chaqmoqining tajovuziga qarshi qaratilgan edi. Shu munosabat bilan Amir Temur bilan yevropaliklar oʻrtasida 20 ga yaqin diplomatik uchrashuv oʻtkazildi. 1402-yil iyul oyining oxirida Amir Temur va uning qoʻshinlari Sulton Boyazid qoʻshinlariga qarshi ajoyib gʻalabaga erishdilar. Sultonning oʻzi qoʻlga olindi. Amir Temurning bu gʻalabasi tufayli Konstantinopol va Vizantiya yana 50 yil yashadi. Fransuz qiroli Karl VI Parijdagi oʻz saroyida Amir Temurning elchisi, Sultoniya arxiyepiskopi Jan III bilan tantanali ravishda uchrashdi. Amir Temurning Karl VI ga yoʻllagan xabarida “dunyo savdogarlar faoliyati tufayli gullab- yashnashi” taʼkidlangan. Amir Temur musulmonlar va nasroniylarning turlicha eʼtiroflari Turkiston va Fransiya aholisi oʻrtasidagi hamkorlik va savdoga hech qanday xalaqit bermasligini taʼkidladi. Afsuski, 1405-yilda Amir Temur vafotidan soʻng uning rejalari va loyihalari amalga oshmay qoldi[1, 98b].

1993-yil 28-30 oktyabr kunlari Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning Fransiyaga qilgan tashrifi chogʻida mamlakatimiz rahbarining Parij Xartiyasini imzolashi ikki davlat oʻrtasidagi iqtisodiy aloqalarga asos solgan edi.

Oʻzbekiston Milliy banki bilan Fransiyadagi yirik "Kredit Kommersian de Frans" banki oʻrtasida bitim imzolandi, unda Buxoroda neftni qayta ishlash zavodi qurish loyihasini pul bilan taʼminlash koʻzda tutildi. Taniqli "Elfakiten" neft-kimyo konserni, "Texnip" firmasi va boshqa kompaniyalar bilan Buxoroda neftni qayta ishlash zavodi qurilishiga kelishildi. Natijada ushbu zavod 1997 yil 22 avgustda ishga tushdi. Korxona benzin, kerosin, suyultirilgan gaz, dizel yoqilgʻisi kabi mahsulotlar ishlab chiqara boshladi. Zavod qurilishi jarayonida 262 mln. AQSH dollari oʻzlashtirildi[2, 252b].

Fransiyada «Temuriylar davri sanʼati va tarixini oʻrganish» hamda «Avitsenna-Fransiya» assotsiatsiyalari faoliyat koʻrsatmoqda. Shuningdek, Samarqand va Lion, Xiva va Versal, Buxoro va Ruey-Malmezon shaharlari oʻrtasida birodarlik aloqalari oʻrnatildi.

Ikki tomonlama aloqalar rivojlanishining tamal toshlari Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimovning 1993 yil 28 – 30 oktyabr kunlari Fransiyaga davlat tashrifi paytida qoʻyildi.

Shundan soʻng 1994 yil aprelda Fransiyaning sobiq prezidenti F. Mitteran eng rivojlangan yetti davlat rahbarlari orasida birinchi boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasiga davlat tashrifi bilan keldi. Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimovning Fransiyaga 1996 yil apreldagi ikkinchi tashrifi va Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov hamda Fransiya prezidenti Jak SHirakning 1996 yil iyunda Florensiyada Yevropa Ittifoqi rahbarlarining sammitidagi, 2002 yil davlat rahbarlarining NATOga aʼzo davlatlar rahbarlarining Pragadagi sammitida uchrashuvlari ikki tomonlama aloqalarni yangi darajaga koʻtarish imkoniyatini berdi. Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimovning 1996 yil 21-24 apreldagi ikkinchi tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni yangi pogʻonaga koʻtardi. Birinchi Prezident I. Karimovning Fransiya Respublikasi Prezidenti J. Shirak bilan uchrashuvi

chogʻida ikki mamlakat oʻrtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama etildi. Ushbu tashrif davomida Prezidentimiz YUNESKO qarorgohida tashkil qilingan «Temuriylar davrida fan, madaniyat va taʼlimning rivoji» mavzusidagi koʻrgazmada ishtirok etdi[3, 322b]. Bu uchrashuvlar chogʻida imzolangan turli shartnoma va konvensiyalar hamda turli moliyaviy protokollar ikki davlat oʻrtasidagi iqtisodiy, ilmiy, madaniy aloqalarni kengayib borishiga zamin yaratdi.

Fransiyaning Oʻzbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Fransua Gote 2010 yil 10-fevral kuni Tashqi ishlar vazirligida qabul qilindi. Uchrashuvda ikki davlat aloqalarini yanada rivojlantirish bilan bogʻliq masalalar yuzasidan fikr almashildi.Statistik maʼlumotlarga qaraganda, 2011-yilda Oʻzbekiston va Fransiya oʻrtasida tovar ayirboshlash hajmi 354 mln dollarni tashkil qilgan. Bu 2010-yilgi koʻrsatkichga nisbatan ikki barobardan koʻp.

Fransiyada «Temuriylar davri sanʼati va tarixini oʻrganish» hamda «Avitsenna-Fransiya» assotsiatsiyalari faoliyat koʻrsatmoqda. Shuningdek, Samarqand va Lion, Xiva va Versal, Buxoro va Ruey-Malmezon shaharlari oʻrtasida birodarlik aloqalari oʻrnatildi. Fransiya ilmiy tadqiqotlar markazi bir qator sohalarda, xususan, chorvachilik, vinochilik, nodir metallar, oʻsimliklar asosidagi yangi dori-darmonlar, neft va gaz mahsulotlari va boshqa sohalarda hamkorlik oʻrnatish imkoniyatlarini oʻrganmoqda. Toshkent texnika universiteti bilan Parij universiteti oʻrtasidagi hamkorlik haqidagi shartnoma koinotdan olinadigan agrosuratlarni oʻrganuvchi oʻzbek-fransuz ilmiy markaziga asos boʻldi.

Fransuz mutaxassislarining maʼlumotlariga koʻra, 35 mingga yaqin oʻqituvchi va murabbiylar 1500 ta oʻrta taʼlim va oliy oʻquv yurtlarida 500 ming talaba va oʻquvchiga fransuz tilidan dars beriladi. Jak Barra, Kolin Ferro va Sharlotta Vang yozadilar: "Afsuski, fransuz aholisining koʻpchiligi Oʻzbekistonda boʻlayotgan haqiqiy voqealar haqida tasavvurga ega emas. Aynan qanday qilib oʻzbek diplomatlari fransuzlarni muvaffaqiyatlari, yutuqlari va muammolari bilan tanishtiradi. Shu bilan birga, oʻzbek xalqi Fransiyadagi vaziyatni yaxshi biladi".

Fransuz tadqiqotchilari Oʻzbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatini juda yuqori baholaydilar. Ular Oʻzbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimovning hayotini Fransiyaning 5-Prezidenti, general Sharl de Goll bilan solishtiradilar. Bundan tashqari ular, Oʻzbekiston siyosiy tizimining 5- Fransiya Respublikasining siyosiy tizimi bilan oʻxshashligiga ishora qiladilar. Shu bilan birga Fransuz ekspertlari "Islom Karimovning Afgʻonistonga nisbatan real va izchil siyosati oʻz mevasini beradi. U Toshkentni dinamik va mintaqaviy diplomatiya markaziga aylantirishga muvaffaq boʻldi"[4, 192b].

Keyingi yillar davomida ham Oʻzbekiston va Fransiya oʻrtasidagi iqtisodiy, madaniy sohalardagi aloqalar rivojlanib bordi.

2018 yilning 8-9 oktyabr kunlari Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning taklifiga binoan rasmiy davlat tashrifi bilan ushbu davlatda boʻldi.

Shavkat Mirziyoev va Emmanuel Makronning muzokarasida Oʻzbekiston – Fransiya munosabatlarini yanada rivojlantirish, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Davlat rahbarlari mintaqaviy va xalqaro hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish, tahdid va xatarlarga qarshi birgalikda kurashish muhimligini qayd etdilar. Mintaqada tinchlik va osoyishtalikni taʼminlashning muhim sharti sifatida Afgʻonistondagi vaziyatni

barqarorlashtirish zarurligi yana bir bor ta’kidlandi. Bunda oldindan hech qanday shart qoʻymasdan toʻgʻridan-toʻgʻri siyosiy muloqotni yoʻlga qoʻyish ushbu muammoni hal etishning birdan-bir yoʻli ekaniga e’tibor qaratildi[5].

Keyingi yillarda siyosiy muloqot faollashgani va bundan buyon muntazamlik kasb etishi lozimligi ta’kidlandi.

Hukumatlar va vazirliklar darajasida muntazam muloqot amalga oshirilmoqda. Tashqi siyosiy idoralar oʻrtasida siyosiy maslahatlashuvlar oʻtkazilmoqda. Parlamentlararo aloqalar izchil rivojlanmoqda.

Oʻzbekiston va Yevropa Ittifoqi oʻrtasidagi sheriklik va hamkorlik toʻgʻrisidagi bitimga asosan, oʻzaro savdoda eng koʻp qulaylik yaratish tartibi oʻrnatilgan, ikki tomonlama soliq solishga yoʻl qoʻymaslik toʻgʻrisida konvensiya va boshqa hujjatlar imzolangan.

Mamlakatimizda fransuz tilini oʻrganishga qiziquvchilar koʻp. Toshkentda Fransuz tili va madaniyati markazi tashkil etildi.

Shuningdek, 2019-2020 yillarda tashqi ishlar vazirliklari oʻrtasida hamkorlik dasturi, Oʻzbekiston Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qoʻmitasi va Fransiya ekologiya, barqaror taraqqiyot va energetika vazirligi oʻrtasida atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror taraqqiyot sohasida hamkorlik, ikki mamlakat ichki ishlar, madaniyat vazirliklari, Oʻzbekiston Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamgʻarmasi va Luvr muzeyi oʻrtasida hamkorlik boʻyicha oʻzaro anglashuv memorandumi kabi hukumatlararo va idoralararo jami 10 ta hujjat qabul qilindi. Muzokaralar yakunida imzolangan hujjatlar oʻzaro almashildi.

2022 yil 21-22 noyabr kunlari Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning taklifiga binoan ushbu davlatga tashrif buyurdi.

Tashrif davomida Oʻzbekiston – Fransiya munosabatlarini yanada kengaytirishga qaratilgan 14 ta hujjat imzolandi. Eng muhimi, davlatlarimiz oʻrtasida toʻrtta asosiy yoʻnalishda – iqtisodiy aloqalar, parlamentlararo hamkorlik, siyosat va madaniyat sohalaridagi oʻzaro munosabatlarni yangi, yanada yuksak bosqichga koʻtarish imkoniyatlari yaratildi[6].

2022-yil 27-28 noyabr kunlari Parijda ikkinchi Oʻzbekiston-Fransiya ta’lim forumi oʻtkazildi. Fransuz tili oʻqituvchilarini tayyorlash sohasidagi hamkorliklar rivojlantirilmoqda.

Bugungi kunda Oʻzbekistonda 700 dan ortiq maktab, kollej va litsey, shuningdek, 12 ta oliy ta’lim muassasasida 200 ming nafardan ziyod oʻquvchi-talaba fransuz tilini oʻrganmoqda. Ikki mamlakatning 40 dan ortiq oliy ta’lim muassasasi oʻrtasida samarali hamkorlik yoʻlga qoʻyilgan.

Luvr – dunyodagi eng katta va eng koʻp tashrif qilinadigan muzeylardan biri boʻlib, eng yirik va qimmatli badiiy asarlar toʻplamiga ega. Har yili Luvrga 10 millionga yaqin sayyoh keladi.

2022-yilning 22-noyabr kuni “Oʻzbekiston vohalarining moʻjizalari. Karvon yoʻllari chorrahasida” koʻrgazmasi ochildi. Xalqimizning boy madaniy merosiga bagʻishlangan ushbu koʻrgazma 2023 yil 6 mart kuniga qadar davom etdi.

Koʻrgazma Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil oktyabr oyida Fransiyaga amalga oshirilgan tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarga asosan tashkil etildi. Oʻshanda Oʻzbekiston va Fransiya muzeylari hamkorligida koʻrgazmalar tashkil etish, mamlakatlarimiz oʻrtasida ilmiy va madaniy aloqalarni kengaytirish zarurligi qayd etilgandi.

Oʻzbekiston Madaniyat va sanʼatni rivojlantirish jamgʻarmasi va Luvr muzeyi oʻrtasida imzolangan tegishli memorandum asosida keyingi uch yilda koʻrgazmalarga puxta tayyorgarlik koʻrildi. Oʻzbekiston va Fransiyaning birgalikdagi bir nechta ekspeditsiyasi uyushtirilib, koʻplab arxeologik topilmalar kashf qilindi.

Natijada Luvrning Rishele zali va Islom boʻlimida xronologik ketma-ketlikda joylashtirilgan beshta boʻlimdan iborat katta koʻrgazma makoni yaratildi. Yurtimiz tarixining 1500 yildan ortiq davrini qamrab olgan koʻrgazma mamlakatimizning 16 muzeyidan 138 ta noyob ashyo, shu jumladan koʻrgazma uchun maxsus restavratsiya qilingan 70 ta eksponatdan iborat. Shuningdek, Fransiya, Buyuk Britaniya va AQShning yirik muzeylaridan keltirilgan 31 ta buyum koʻrgazmadan joy oldi.

Koʻrgazmaning ilk mehmonlari boʻlgan Oʻzbekiston va Fransiya yetakchilari Dalvarzintepa va Xolchayon yodgorliklaridan topilgan eksponatlar, Varaxshadagi qizil rangli xonadan devoriy surat, Kofirqalʼadan oʻymakor panno, Katta Langar Qurʼoni sahifalari, Amir Temur maqbarasidan qoʻshtavaqali eshik, Afrosiyobdagi elchilar tasviri tushirilgan devoriy surat va boshqa eksponatlar bilan tanishdilar. Ularning yaratilishi va topilishi, ular bilan bogʻliq tarixiy davrlar va shaxslar toʻgʻrisida batafsil maʼlumot berildi [8; 35-39 ].

Parijdagi Arab dunyosi institutida esa Oʻzbekiston Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va sanʼatni rivojlantirish jamgʻarmasi hamkorligida «Samarqandga yoʻl. Ipak va oltin moʻjizalari" nomli koʻrgazma tashkil etildi. 2022-yilning 23 noyabr kunidan 2023 yil 4 iyun kuniga qadar ilk bor Fransiyada keng xalqaro jamoatchilik eʼtiboriga Oʻzbekistonning XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oid boy moddiy madaniyatiga taalluqli 300 dan ortiq eksponat havola etildi.

Koʻrgazmadan yurtimizning 9 ta muzeyi, jumladan, Nukus, Samarqand, Buxoro va Toshkent muzeylaridan keltirilgan toʻqimachilik buyumlari, libos va poyabzallar, bosh kiyim toʻplamlari, shuningdek, Turkiston avangardi yoʻnalishiga mansub 24 ta moʻyqalam asari oʻrin olgan. Tayyorgarlik doirasida 89 ta zargarlik buyumi restavratsiya qilindi.

Yevroparlamentning Markaziy Osiyo bilan aloqalar boʻyicha delegatsiyasi raisi oʻrinbosari Andris Ameriks taʼkidlaganidek, "Oʻzbekiston Prezidentining Yevropa Ittifoqi davlatlariga har bir tashrifi mamlakatlarimiz oʻrtasidagi munosabatlar juda yaxshi ekanini tasdiqlaydi. Oʻzbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida ishonchli va sodiq ittifoqchi hisoblanadi. Oʻzbekiston Prezidentining Fransiyaga tashrifi muhim ahamiyatga ega boʻlib, kelgusida hamkorlik uchun yanada keng imkoniyatlar ochadi"[7].

Oʻzbekistondagi Fransiya elchixonasining madaniyat va hamkorlik boʻlimi (SCAC) vazifasi fransuz tili va madaniyatini targʻib etish, madaniyat va sanʼat sohasida ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, ikki davlat oʻqituvchilari, olimlari va tadqiqotchilari oʻrtasida oʻzaro hamkorlik munosabatlarini qoʻllab-quvvatlashdir[9].

SCAC oʻzbek muassasalari va tashkilotlari bilan hamkorlikda:

- Madaniy tadbirlarni tashkil qiladi;
- Fransuz tili oʻqituvchilari uchun malaka oshirish seminarlarini oʻtkazadi;
- Oliy taʼlim muassasalariga oʻzaro hamkorlik aloqalari oʻrnatishda koʻmaklashadi;
- Fransiyada taʼlim olish uchun stipendiyalar taqdim etadi;
- Sogʻliqni saqlash, huquqshunoslik, davlat boshqaruvi va boshqa sohalarda muassasalararo fikr almashinuvni qoʻllab-quvvatlaydi.

Oʻzbekiston va Fransiya oliy taʼlim muassasalari oʻrtasida universitetlararo hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish SCACning asosiy vazifalaridandir. Boʻlim Fransiya universitetlarini Oʻzbekiston taʼlim muassasalariga yoʻnaltirilgan ERASMUS+ loyihalarida ishtirok etishga jalb etadi.

SCAC Kampus Frans agentligining Toshkent boʻlimi yordamida Fransiya oliy taʼlimini targʻib etish, shuningdek, xoh oʻz hisoblaridan boʻlsin, xoh Fransiya hukumati stipendiyalari dasturi (BGF) doirasida boʻlsin, Fransiyada taʼlim olish istagidagi oʻzbekistonlik talabalarga maslahatlar berish bilan shugʻullanadi. Toshkent fransuz alyansi qoshida joylashgan Kampus Frans boʻlimi jamoatchilik uchun ochiqdir[10; 230-233].

Bugungi kunda Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti bilan hamkorlikda turli tarixiy davrlar va turli hududlarni qamrab oluvchi toʻrtta qoʻshma fransuz-oʻzbek arxeologik missiyalari ish olib bormoqda. Ular sirasiga Samarqanddagi Afrosiyob muzeyida saqlanayotgan « Elchilarning qabul qilinishi » mavzusidagi devoriy rasmlarni taʼmirlash loyihasi ham kiradi. Mazkur missiyalar Fransiya Tashqi ishlar vazirligining Xorijda arxeologik tadqiqotlar maslahat kengashi tomonidan mablagʻ bilan taʼminlanadi. Afrosiyob devoriy rasmlari taʼmiri loyihasi esa bir qator davlatlar elchixonalari, shu jumladan, Fransiya elchixonasi moliyaviy koʻmagi yordamida amalga oshirilmoqda[11].

Xulosa qilib aytganda, bugungi davrga kelib Oʻzbekiston va Fransiya oʻrtasidagi diplomatik aloqalar oʻz rivojlanishining yangi bosqichiga qadam qoʻydi. Oʻzbekiston va Fransiya oʻrtasidagi turli sohalarga oid imzolangan hujjatlar, kelishuvlar ikki davlat oʻrtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohalarning yanada rivojlanishiga hissa qoʻshmoqda. Ikki davlat oʻrtasidagi madaniy aloqalar rivojlanmoqda. Fan va taʼlim sohasiga oid koʻplab kelishuvlarga erishilmoqda. Oʻzbekiston va Fransiya oliy oʻquv yurtlari oʻrtasida hamkorliklar yoʻlga qoʻyilmoqda.

## Адабиётлар/Литература/References:


1. Фармонов Р, Жўраев К, Рахимов М, Мўминова Ф, Турсунова Р и др “История международных отношений Республики Узбекистан”: коллективная монография. – Т. : УМЭД, 2017. с. 98.
2. Oʻzbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil Oʻzbekiston tarixi. - T.: SHarq, 2000. B.252.
3. Karimov I.A. Oʻzbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: “Oʻzbekiston”, 1995.B.322.
4. J.Barras, C.Ferro, Ch.Wang. Geopolitique de’l Ouzbekistan. – Paris.2010.- P.195.
5. Халқ сўзи газетаси. “Ўзбекистон-Франция: Узоқ муддатли ҳамкорликни янада кенгайтириш ва мустаҳкамлаш йўлида”. 2018-йил 10-октябрь.
6. “Xalq soʻzi” gazetasi, 2022-yil 25-noyabr.
7. “Xalq soʻzi” gazetasi, 2022-yil 25-noyabr.
8. Рахманкулов, Ф. (2022). ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА МИЛЛИЙ ЎЗЛИКНИ АСРАШ МАСАЛАЛАРИ. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, *2*(11), 35-39.
9. https://uz.ambafrance.org/Madaniyat-va-hamkorlik-bo-limi#madaniy-hamkorlik-0

10. Sharafutdinovich, K. S. (2023). The Need to Integrate Environmental Education and Training Processes in Ensuring the Stability of Ecotourism in Uzbekistan. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(10), 230-233.
11. https://uz.ambafrance.org/Arxeologiya-va-madaniy-merosni

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V3SI8Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/8 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).